

**Investitsiya loyihalarini
amalga oshirishni nazorat va
monitoring
qilish”avtomatlashtirilgan
axborot tizimini joriy etish va
undan foydalanishni tashkil
etish
to’g’risida
USLUBIY QO’LLANMA**

Toshkent – 2025

“Investitsiya loyihalarini amalga oshirishni nazorat va monitoring qilish” avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish va undan foydalanishni tashkil etish to’g’risida uslubiy qo’llanma.

T.: O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. – 18 bet.

Ushbu uslubiy qo’llanma investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida nazorat va monitoring qilishning yagona tartibini belgilash, jarayonlarni tizimlashtirish hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan. Qo’llanma orqali investitsiya loyihalari bo’yicha amalga oshiriladigan ishlarda manfaatdor tomonlarning huquq va majburiyatlari aniqlashtiriladi, nazorat shakllari va monitoring mexanizmlari belgilab beriladi.

Qo’llanma investitsiya loyihalarining o’z vaqtida, sifatli va iqtisodiy samarali amalga oshirilishini ta’minlash, ajratilgan mablag’larning maqsadli va oqilona sarflanishini nazorat qilish, shuningdek, loyihalar natijalarining hududiy va tarmoq rivojlanishiga qo’shayotgan hissasini baholashga xizmat qiladi. Qo’llanma amaliy yo’riqnoma sifatida monitoring bosqichlari, tartibi va hisobdorlik mexanizmlarini yoritib beradi hamda natijalarni tahlil qilish asosida tegishli xulosalar va takliflar ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Ushbu uslubiy qo’llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

© O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

MUNDARIJA:

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar.....	4
Kirish.....	5
Umumiy qoidalar.....	6
Axborot tizimining maqsadi.....	9
Axborot tizimini joriy etish va undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish.....	11
Axborot tizimida loyiha va kompleks tarmoq jadvalini shakllantirish.....	16
Yakunlovchi qoidalar.....	17

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonolari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-41-son Farmoni	
Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 306-sonli "ijiy va mahalliy investorlarning investitsiya loyihalari tashqi infratuzilmasini yaratish xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-iyuldagi 616-sonli "Investitsiya loyihalarini nazorat va monitoring qilish sohasida axborot tizimini joriy etish va undan foydalanish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsiya jarayonlarini jadallashtirish va hududlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jarayonda investitsiya loyihalarining o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash, ularni muntazam nazorat qilish va monitoring yuritish masalasi alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biriga aylandi.

Investitsiya loyihalarining samaradorligi ko'p jihatdan ularning bajarilish bosqichlarida belgilangan vazifalar va ko'rsatkichlarning o'z vaqtida bajarilishiga bog'liq. Shu bois, loyiha natijalarini baholash, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni nazorat qilish, yuzaga keladigan muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Nazorat va monitoring tizimining samarali faoliyati investitsiya muhiti barqarorligini ta'minlash, investorlar ishonchini mustahkamlash va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishga hissa qo'shishda muhim o'rin tutadi.

Mazkur metodik qo'llanma investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida nazorat va monitoringni tashkil etishning huquqiy asoslari, bosqichlari va mexanizmlarini yoritadi. Qo'llanma davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyatlar, iqtisodiyot va moliya tizimi vakillari, shuningdek, investitsiya loyihalarida ishtirok etuvchi boshqa manfaatdor tomonlar uchun mo'ljallangan bo'lib, nazorat va monitoring jarayonlarini samarali tashkil etish hamda yagona yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

UMUMIY QOIDALAR

Ushbu uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

ma'lumotlar dispetcheri — ijro etuvchi agentlik yoki uning idoraviy mansub organi/tashkilotining loyihani amalga oshirish bo'yicha tegishli ma'lumotlarni axborot tizimiga kiritish uchun mas'ul bo'lgan xodimi;

o'zgartirish — loyihani amalga oshirish muddati, loyiha bo'yicha ishlar qiymati, ko'rsatiladigan xizmatlar hajmlari yoki sifati, mazkur loyihani amalga oshirish imkonini beradigan shartnoma shartlarini jiddiy o'zgartirishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan texnologik jarayonlarni o'zgarishi kabi loyihaning muhim parametrlarini o'zgartirish;

axborot tizimi — "Investitsiya loyihalarini amalga oshirishni nazorat va monitoring qilish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi;

ijro etuvchi agentlik — O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga va xududiy investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi uchun mas'ul bo'lgan vazirliklar va idoralar, shuningdek, boshqa tashkilotlar;

kompleks tarmoq jadvali — loyihani amalga oshirish doirasida parametrlarining o'zaro bog'liqligi hisobga olingan holda, tadbirlarni o'tkazish izchilligi va muddatlarini belgilaydigan hujjat;

nazoratchi — ijro etuvchi agentlik yoki uning idoraviy mansub organi/tashkilotining loyihani amalga oshirish bo'yicha tegishli ma'lumotlarning axborot tizimiga to'g'ri kiritilishi va ishonchliligini nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan xodimi;

nazorat qiluvchi organlar — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi;

loyihalarning amalga oshirilishini nazorat qilish — loyihani amalga oshirish real ko'rsatkichlarini rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga taqqoslash, tafovutlarni baholash va loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish yoki uning amalga oshirilishini to'xtatish to'g'risida o'z vaqtida qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan tegishli tuzatishlar kiritish hamda bunday holatlarning oldini olish choralarini ko'rish;

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (keyingi o'rinlarda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi deb ataladi) — markazlashtirilmagan manbalar, XMI/XHMT va O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining jalb qilingan mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarning amalga oshirilishini nazorat va monitoring qilish bo'yicha mas'ul davlat organi;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (keyingi o'rinlarda Iqtisodiyot va sanoat vazirligi deb ataladi) — budget tizimining tegishli budgetlari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarning amalga oshirilishini nazorat va monitoring qilish bo'yicha mas'ul davlat organi;

loyihaning amalga oshirilishini monitoring qilish — qarorlar qabul qilish jarayonlarini yaxshilash va loyihani samarali boshqarishni ta'minlash uchun foydalaniladigan loyihani amalga oshirish holati to'g'risidagi joriy ko'rsatkichlar hamda umumiy ma'lumotlarni tizimli ravishda to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi (keyingi o'rinlarda Agentlik deb ataladi) — axborot tizimini joriy etishga mas'ul bo'lgan davlat organi;

ekspertiza organlari — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK, Qurilish vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi;

axborot tizimidan foydalanuvchi — axborot olish yoki aniq vazifani bajarish uchun axborot tizimi xizmatlaridan foydalanuvchi shaxs;

loyiha — vaqtincha va resurslar cheklangan sharoitlarda mahsulot (tovar, ishlar, xizmatlar) yaratishga yo‘naltirilgan o‘zaro bog‘liq yoki alohida tadbirlar kompleksi;

tizim operatori — talablarga muvofiq belgilangan va axborot tizimini vazirlik, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatiga joriy etish uchun mas‘ul bo‘lgan, shuningdek, tizimning uzluksiz ishlashi va axborot xavfsizligini ta‘minlaydigan yuridik shaxs;

AXBOROT TIZIMINING MAQSADI

AXBOROT TIZIMINING ASOSIY MAQSADI:

-  loyihalarning amalga oshirilishini hisobga olish, nazorat va monitoring qilinish jarayonlarini avtomatlashtirish;
-  loyihalarni amalga oshirishni nazorat va monitoring qilish jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini avtomatlashtirish;
-  loyihalarning muddati, budjeti, maqsadlari va ko'rsatkichlariga rioya qilinishini nazorat qilish;
-  ijrochi etuvchi agentliklar tomonidan loyihani joriy qilish, shu jumladan axborot tizimiga muddatlar, resurslar, manbalar, maqsad va ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlarni kiritish va tasdiqlash;
-  amalga oshiriladigan loyihalar bo'yicha turli parametrlar kesimida tahliliy hisobotlarni shakllantirish va kiritish;
-  loyihalarning amalga oshirilish holati bo'yicha davriy ma'lumotlarni to'plashni va hisobotlarini tashkil etish;
-  loyiha faoliyati ishtirokchilari o'rtasida tashkiliy-boshqaruv jarayonlarni yuritish;



amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan loyihalar bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;



loyihalarni amalga oshirishda tavakkalchiliklarni kuzatish vositasini yaratish;



loyihalar amalga oshirilgandan so'ng keyingi monitoring jarayonida maqsadli ko'rsatkichlarga erishishni kuzatish vositasini yaratish.



Axborot tizimi foydalanuvchilarga ma'lumotlar bilan ishlashda axborot tizimining funksiyalaridan foydalanish huquqlarini taqsimlash imkoniyatini ta'minlaydi. Ma'lumotlar bilan ishlash uchun aniq vakolatlar har bir guruhdagi foydalanuvchilar uchun alohida shakllantiriladi.

Axborot tizimining u yoki bu ma'lumotlaridan foydalanish davlat organlari va axborot tizimi foydalanuvchilarining tegishli vakolatlari bilan tartibga solinadi.



Axborot tizimi foydalanuvchilari aniq foydalanuvchilar uchun belgilangan funksional rollarga muvofiq axborot tizimi bilan ishlash borasida instruktaj va dastlabki o'quv mashg'ulotlarida qatnashishlari kerak. Instruktaj va dastlabki o'quv mashg'ulotlari Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi va tizim operatori tomonidan, shu jumladan foydalanuvchilar yo'riqnomalari va boshqa hujjatlarni taqdim etish orqali bepul amalga oshiriladi.

AXBOROT TIZIMINI JORIY ETISH VA UNDAN FOYDALANISH IMKONIYATIGA EGA BO'LISH



Foydalanuvchilarning axborot tizimidan foydalanishini tashkil qilish va ruxsat berish tizim operatori tomonidan amalga oshiriladi.

Axborot tizimining ishlashini texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida tizim operatori quyidagilarni amalga oshiradi:

- ✓ axborot tizimi foydalanuvchilarini ro'yxatdan o'tkazish, tizimga ulash va o'qitish;
- ✓ axborot tizimini modernizatsiya qilish va uning yangi funksiyalarini ishga tushirish;
- ✓ axborot tizimi foydalanuvchilariga axborot tizimidan Call-markaz orqali foydalanish masalalari bo'yicha maslahat berish, shu jumladan foydalanuvchilarning axborot tizimida noto'g'ri xatti-harakatlarining oldini olish choralarini amalga oshirish; axborot tizimining ishlashini, funksional va foydalanish xususiyatlarini yaxshilash, sifati va samaradorligini oshirish maqsadida uning ishlashini tahlil qilish.



Axborot tizimining barcha foydalanuvchilari axborot tizimida tegishli vakolatlarni olishlari uchun ro'yxatdan o'tishlari lozim.



Ijro etuvchi agentlik, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, ekspertiza organlari va nazorat qiluvchi organlar axborot tizimidan foydalanish uchun tizim operatoriga buyurtmanoma bilan murojaat qiladi.

Buyurtmanomada mas'ul xodimlardan iborat nomzodlar ro'yxati, ularning har birining ismi, familiyasi va otasining ismi ko'rsatiladi.

BUYURTMANOMAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:



ko'rsatilgan mas'ul xodimlarining egallab turgan lavozimiga tayinlangani to'g'risida buyruq nusxasi;



xodimlarning loyihalarni amalga oshirish tashabbusi, amalga oshirishi, ularni nazorat va monitoring qilish bo'yicha funksional majburiyatlari to'g'risida ma'lumot.



Agentlik bilan — axborot tizimini joriy etish va unga texnik xizmat ko'rsatish;



Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan— modernizatsiya qilish va unga texnik xizmat ko'rsatishni, shuningdek, axborot tizimining samarali, uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta'minlash bo'yicha shartnoma tuzadi.

AXBOROT TIZIMIDA LOYIHA VA KOMPLEKS TARMOQ JADVALINI SHAKLLANTIRISH



Loyihani O'zbekiston Respublikasining tasdiqlangan Investitsiya dasturiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining boshqa qarorlariga kiritilgani uni axborot tizimiga kiritishga asos bo'ladi.



Loyiha O'zbekiston Respublikasining tasdiqlangan Investitsiya dasturiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining boshqa qarorlariga kiritilgandan so'ng ijro etuvchi agentlik yetti ish kuni ichida axborot tizimida yangi loyihani yaratadi.



Loyihani shakllantirishda ijro etuvchi agentlik loyiha mazmuni, tarmoq, boshlanish va yakunlanish sanasi, loyiha ishtirokchilari hamda boshqalarni o'zida aks ettirgan — loyihaning majburiy ko'rsatkichlarini to'ldiradi.



Loyiha pasporti belgilangan shaklda kiritilib, ijro etuvchi agentlik tomonidan tasdiqlangandan so'ng axborot tizimi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga (tegishli qismi

bo'yicha) yangi loyihani ma'lumotlar bazasiga kiritish haqida xabarnoma jo'natadi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi yoki Iqtisodiyot va moliya vazirligi (tegishli qismi bo'yicha) **2 ish kuni** mobaynida yangi loyiha to'g'risida kiritilgan ma'lumotlarini ko'rib chiqadi.



Nomuvofiqliklar yoki xatolar aniqlangan holatlarda, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi yoki Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (tegishli qismi bo'yicha) axborot tizimi orqali ijro etuvchi agentlikni loyiha bo'yicha kiritilgan ma'lumotlarni qayta ishlash zarurati to'g'risida xabardor qiladi.

Ijro etuvchi agentlik loyiha ma'lumotlarini 1 ish kuni mobaynida qayta ishlaydi.



Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi yoki Iqtisodiyot va moliya vazirligi (tegishli qismi bo'yicha) tomonidan tasdiqlangan holatda (axborot tizimiga tegishli belgi qo'yiladi), loyiha axborot tizimida ro'yxatdan o'tgan hisoblanadi.

Ma'lumotlar dispetcheri loyihani axborot tizimida ro'yxatga olish natijalari bo'yicha bir hafta muddatda axborot tizimida loyihaning kompleks tarmoq jadvalini shakllantiradi va loyiha bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni to'ldiradi:


-  loyihaning maqsadi va asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarining reja qiymatlari (ASK);
-  loyihani moliyalashtirishning rejali miqdori;
-  loyiha bilan bog'liq barcha tadbirlar, ularni amalga oshirish muddati va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar;
-  loyihani amalga oshirishdan kutiladigan natijalar;
-  yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklar va ularga nisbatan ta'sir choralari;
-  loyiha hujjatlari.

Loyihaning kompleks tarmoq jadvalida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim:

-  ishlarning davomiyligi, ularning budget tadbirlari ko'rsatilgan bosqichlari;
-  kompleks tarmoq jadvalining barcha ishlari o'zaro bog'liq bo'lishi va/yoki yakuniy maqsadga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;
-  nazorat nuqtalari (bosqichlar) belgilanishi kerak;

- ✔ barcha ishlarni bajarish uchun mas'ul shaxslar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Axborot tizimida loyihaning kompleks tarmoq jadvali yaratilib, nazoratchi bilan kelishilgandan keyin va tasdiqlovchi tomonidan tasdiqlangandan so'ng kelishish uchun Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga yoki Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga (tegishli qismi bo'yicha) yuboriladi.



Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi yoki Iqtisodiyot va moliya vazirligi (tegishli qismi bo'yicha) bilan kelishilgan kompleks tarmoq jadvali **1 ish kuni** davomida tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuboriladi.



Nomuvofiqliklar yoki xatolar aniqlanganda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi agentlik va Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi yoki Iqtisodiyot va moliya vazirligini (tegishli qismi bo'yicha) kompleks tarmoq jadvalini qayta ishlash zarurligi haqida xabardor qiladi.

Ijro etuvchi agentlik 1 ish kuni mobaynida kompleks tarmoq jadvalini qayta ishlaydi, so'ngra kelishuv uchun Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi yoki Iqtisodiyot va moliya vazirligiga (tegishli qismi bo'yicha) yuboradi.

YAKUNLOVCHI QOIDALAR



Qonunchilik talablarini buzgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.



Ekspertiza organlari shu kunning o'zida tegishli hujjatlar qabul qilgani yoki qabul qilmaganini axborot tizimida tasdiqlaydi.



Ekspertiza organlari tegishli hujjatni olgach, ekspertiza o'tkazish va belgilangan tartibda xulosa berish yakunlari bo'yicha axborot tizimida tegishli belgi qo'yadi va unga tegishli xulosani biriktiradi.



Ekspertiza organlari ijobiy xulosa berishni rad etgan taqdirda, axborot tizimida "e'tirozli xulosa" belgisini qo'yadi.

This image shows a full page of blank white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page, providing a template for writing or drawing. There are no margins, text, or other markings present.